

SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA ULAR ORQALI
O'QUVCHILARNI KITOBXONLIKKA TARG'IB QILISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7866935>

Raxmatova Hamida Ismatillo qizi

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *bugungi globallashuv zamonida yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish hamda ularni kitobga mehrini oshirish eng dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi. chunki insoniyat uchun faqat va faqat tafakkurgina najot bo'la oladi. keltirilgan ushbu maqolada shukur xolmirzayev asarlarining o'ziga xosligi va ular orqali o'quvchilarni kitobxonlikka targ'ib qilish*

Kalit so'zlar: *Kitobxonlik, kitobxonlik madaniyati, kitobxonlik targ'iboti, Shukur Xolmirzayev ijodi, yozuvchi uslubi, asarlarning ahamiyati, tabiat va inson munosabatlari.*

Darhaqiqat, har bir inson dunyoga kelar ekan, atrof-muhitga, o'zi o'sib-ulg'aygan jamiyatga tafakkur nigohi bilan boqib, undan ibrat oladi, xulosalar, fikr-tushunchalar bilan boyiydi va shularga tayangan holda inson bo'lib shakllanadi. Chinakam badiiy adabiyot ana shu fikru xulosalarni benihoya go'zal bir tarzda ifoda etadi, eng ta'sirchan, unutilmas voqealar vositasida teranlashtiradi, mustahkamlaydi. Bir so'z bilan aytganda, adabiyot odam bolasida chin insoniy fazilatlarini shakllantiradi. Unutmasligimiz kerakki, shaxsiyati mazkur mezon va fazilatlardan mosuvo kimsa halol va yaxshi ishchi yoki xizmatchi tugul, tom ma'nodagi inson ham bo'la olmaydi. Fuqarolarida ushbu mezon va fazilatlar shakllanmagan jamiyatda esa sof ma'naviy-iqtisodiy taraqqiyotning bo'lishi mumkin emas. Bunday jamiyatni bir-birini aldovchi, talovchi, bir-birining haqini yeyishdan qo'rqmaydigan beshafqat olomon, desak, sira-sira xato qilmaymiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqea bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlar o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgani g'oyatda tahsinga loyiqdir. Kitob tafakkur qanotidir, degan edi alloma adibimiz Oybek. Biz bugun yangi davrga qadam qo'ydik. Dunyo yana ilmga, tafakkur — intellektga intilmoqda. Zero, insoniyat uchun faqat va faqat tafakkurgina najot bo'la oladi. Chindan ham ulug' va mo'tabar kitoblar insoniylik, halollik, shafqat va imon urug'larini

qalbimizga ekadi. Bizni olamshumul kashfiyotlar, buyuk bunyodkorliklar sari da'vat etadi. Mushkul onlarimizda bizga hammaslak va do'st bo'lib to'g'ri va oqil yo'lni ko'rsatadi. Shu boisdan hayotimizda "o'qimishli inson" degan ibora boshqacha jaranglaydi. Bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish hamda ularni kitobga bo'lgan mehrini oshirishda buyuk adiblarimizning ilmiy va ma'naviy merosi alohida ahmiyatga molik. Bu borada ularning merosidan foydalangan holda kitobxonlik targ'iboti metodlarini ishlab chiqish ko'zlangan masadga erishishning eng asosiy yo'llaridan biridir.

Adabiyot quroli so'z! Aynan so'z orqali hayotni, insonni badiiy talqin qilgan, adabiyot olamida kitobxon mehrini qozongan adib Shukur Xolmirzayevdir. Yozuvchi ijodining alohida xususiyati shundaki, adib milliy hikoya janrini ustoz Abdulla Qahhordan keyin, yangi, yuqori cho'qqiga ko'tardi. Muallifning "Olis yulduzlar ostida", "Hayot abadiy", "Og'ir tosh ko'chsa", "Bodom qishda gulladi", "Tog'larga qor tushdi" kabi hikoyalar to'plamining nashr etilishi o'zbek adabiyotining hikoyachilikdagi katta yutug'idir. Shukur Xolmirzayev uslubi haqida adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov shunday yozadi: "U shu paytgacha o'zbek adabiyotida qalam tebratib kelayotgan kata - kichik yozuvchilarning birontasiga o'xshamasdi. Uning jumlasidan adabiyotda yangilik, yangi jumla qurilishi, yangi uslub boshlanayotganga o'xshardi, ajabki, o'z ideallariga ham o'xshamasdi u". Shu o'rinda Shukur Xolmirzayevning o'zi "Uslubda hamma narsa mujassam: dunyoqarashdan tortib, nuqta qo'yishgacha..."-, degan edi. Yozuvchi uslubiga e'tibor qaratadigan bo'lsangiz, sodda, har qanday jimjimadorlikdan xoli. Qahramonlari holatini nihoyatda ixcham, ma'nodor tasvirleydi. Asarni lo'nda, ohangdor, zamzamali dialoglar asosida qurishni o'z yozuvchilik uslubi darajasiga ko'taradi. Nemis donishmandi I.V. Gyote ta'kidlaganidek "Har qanday san'at asarida, u hoh katta yo kichik bo'lsin, barcha voqealar mohiyatga borib taqaladi". Mohiyat esa har qanday badiiy asarning ichki ustuni; ijodkor dunyoqarashi hamda iymon-e'tiqodining ifodasidir. Yozuvchining ko'pgina hikoyalari hajmi kichik, lekin salmog'i katta. Masalan: "Notanish odam" hikoyasini olaylik. Hikoya "Ovga borayotgan edim, havo aynidi, "Bahor havosida, bir sevalab o'tar", deb ketaverdim... Turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan kamarcha borligi yodinga tushdi. Kamarga kirdim. O'rtada gulxan yonar, chetroqda oqchil chakmon kiygan o'rta bo'ly bir kishi eshagining ayilini bo'shatardi..." Shu o'rinda adibning hikoya boshidanoq o'quvchini ergashtirib ketish mahoratiga qoyil qolish kerak. Notanish odam kamarga kirgan ovchi yigit oldiga borini to'kib tashlaydi. Lekin yigit ko'nqlida unga nisbatan gumon kuchayadi. Kamarga notanish odam bir quchoq o'tinni ko'tarib kirib "isina bering" deydi. Yigit esa olovini minnat qilyapti deb tushunadi. Birozdan so'ng tashqariga chiqib notanish odamning daryo toshqini toshlarning tagiga tiqib tashlagan shoxshabbalarini terayotganini ko'radi va bu o'tinni uyiga olib ketadi deb o'ylaydi. Ko'p o'tmay yigit o'zining shubhali xayollaridan uyalib ketadi. Chunki u odam o'tinni olib ketish uchun emas, boshqa bir yo'lovchilar sovuq

havoda o't yoqib isinishlari uchun tashib kelgan ekan. Kichik hajmli bu hikoyaning yozilganiga ancha bo'ldi. Bugun zamon o'zgardi, zamoni o'zgartirgan boshqa odamlarga qo'shilib, ko'pchilik o'zgardi. Lekin haligacha faqat o'zini emas, balki boshqalarni ham o'ylaydiganlar, buning uchun o'zini o'tga- cho'qqa uradigan insonlar ham bor! Bu hikoya menga gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening "Kukaracha" qissasini eslatadi. Qissadagi Kukaracha ham Notanish odamga o'xshab odamlarga ta'masiz, beg'araz yordam beradi, evaziga hech narsa kutmaydi va buni o'zining insoniy burchi deb biladi. To'g'ri, hayotda yaxshi insonlar kam, lekin, nazarimda oz bo'lsa ham Kukaracha va Notanish odamlardek insonlarning hayotda borligi uchun jamiyatda muvozanat saqlanib turibdi. Asarning ahamiyati ham aynan mana shunda. Shukur Xolmirzayev haqiqiy, professional yozuvchi edi. Ayniqsa, yozuvchining insonga umr va uning mazmuni haqida chuqur mushohada yuritish imkonini beradigan "Odam" hikoyasi juda ta'sirli. Bejiz yozuvchi bu asarni " falsafiy hikoya" deb nomlamagan. Hikoyada Rahima ismli ayolning hayoti, kechmish - kechinmalari qalamga olinadi. Rahima onasi vafotidan so'ng o'zi xohlamagan Shodmon polvonga turmushga chiqadi. Oradan to'rt yil o'tib inqilob boshlanadi, shu orada turmush o'rtog'i vafot etadi. Rahima uchta bolasi bilan beva qoladi. U el qatori kolxozga kiradi va uning faol a'zosiga aylanadi. "Qizillar kelyapti" degan ovoza tarqalib, odamlar bilan tog'ga qochadi. Kichik farzandi tog'da ochlikdan o'lib ketadi. Yillar o'tdi... Endi urush boshlandi. Yolg'iz o'g'li Abdurahim frontga ketdi. Bir yil o'tib o'g'lidan qoraxat keladi, kelini ikki bolasini ham Rahima opaga tashlab chiqib ketadi. Urush ham tugadi. Umrning shunday bir pallasi kiradi: barcha g'am- alamlar, o'rtanishlar, iztiroblarning o'rni bitadi. Bitmaydigan yara yo'q. Rahima buvi endi nevaralariga qarar, ularga o'tmishdan ertaklar aytib berar, uning butun hayoti ham ertakka o'xshardi. Lekin suronli yillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Umr poyonida ayolning esdan chiqaradigan odati paydo bo'ldi- xotirasini yo'qotdi. Ayol hayotda ro'shnolik ko'rmadi. Aslida, Rahima buvi kechirgan iztiroblarni, qiyinchiliklarni ta'riflashga va umuman so'zlarga sig'dirib bo'larmikin? So'z ojiz. Lekin tabiatning adolatini qarangi, umr so'ngida ayolning xotirasi tiklanadi va hayotdan rozi bo'lib ko'z yumadi. Frans Fafka aytganidek "Xayotning ma'nosi shundaki, uning oxiri bor". Har qanday asar hajman kichik yoki katta bo'lishidan qat'iy nazar mukammal xarakterlari, xotiraga muhrlanib qoladigan betakror epizodlari bilan adabiyot maydonida voqea bo'ladi, ya'ni umrboqiylik maqomiga erishadi. Shukur Xolmirzayev ana shunday maqomga erishgan hikoyalaridan biri "Tanholik" dir. Hikoyada bashariyat murabbiylaridan biri, "o'n to'qqizinchi asrning eng murakkab shaxslaridan biri" L.N. Tolstoy haqida. Asarda ulug' adibning umr so'ngidagi alamli o'ylari, iztiroblari, falsafasi-yu donishmandligi mohirona tasvirlangan. Inson shaxsi uning taniga emas, ruhiyatiga taalluqlidir. Hikoyani o'qib Shukur Xolmirzayev va Tolstoy o'rtasida ruhiy yaqinlikni ko'rish mumkin. Adabiyotshunos Normat Yo'ldoshev aytganidek, Shukur Xolmirzayev ham shaxsiyati butun ijodkor edi. Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yorqin va mazmundor

sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali iste'dod sohibi Sh.Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarida rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan adabiyotimiz tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Sh.Xolmirzayev yozuvchilar orasidan birinchilardan bo'lib o'zbek xalqi tarixining „bosmachilik harakati” deb atalgan davrini o'rgana boshladi. Ijodkor faoliyati haqida o'zbek adabiyotshunoslari turli fikrlar bildirgan. Jumladan, tanqidchi Umarali Normatov „Zaminda yashaymiz, zaminni o'ylaymiz” maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: „Inson va tabiat munosabati Sh.Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leymotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so'nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu doirasida atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlanamaydi, har gal muallif masalining yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi...” Adibning 1958-yili Q.Qulniyozov Boysun tuman gazetasida „Xatarli so'qmoqda” nomli birinchi hikoyasi bosilib chiqadi. Adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov „Doim izlanishda” maqolasida Sh.Xolmirzayevning yozuvchilik iste'dodi birinchi hikoyasidayoq namoyon bo'lganligini qayd etib yozadi: „Bolalik, o'smirlilik paytlarida hayotdan olgan tajribasi asar yozish uchun kamlik qilar, hayot taassurotlari esa hali yetarli hazm bo'lmagan edi. Shu sababdan bu hikoya mavhumiyatlari, obrazini tasvirlashda, xususan, ularga individual bo'yoq berishga noaniqliklar bor edi. Lekin yosh muallifning kelajagidan darak beradigan badiiy parchalar ham yo'q emas edi unda. Agar o'sha vaqtlarda yosh muallifning bu hikoyasini o'qib ko'rgan gazetxonlardan birortasi „shu yigitdan yozuvchi chiqadi” deb bashorat qilgan bo'lsa, xato qilmaydi. 60-yillarda Shukur Xolmirzayev, O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Ne'mar Aminov va boshqa yozuvchilar o'zidan avvalgi adiblar an'alarini davom ettirdilar. Ayni chog'da hikoyachilikda yangilikka, originallikka intildilar. Bu adabiy avlod hikoyanavislari orasida Sh.Xolmirzayev alohida ajralib turadi. Voqelikka ortiqcha aralashmay, qahramonlarni yetaklamasdan xolis turib tasvirlash unga xos. Eng go'zal badiiy jihatdan pishiq asarlar yozgan bu adibning bayon usulida hikoya janrining hajm chegaralari parchalandi. Tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik, jamiyat hayotidagi talato'plar va inson ruhiyatining sirli qirralarini mahorat bilan tasvirladi. Bunday asarlar adabiyotshunoslik faniga yangi nazariy fikrlar berishi ham tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normatov. U., „Nasrimiz an'nalari” 205-bet
2. Toshboyev. O., „Adabiy zamondosh”, „G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, T:2018-134-135b
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
4. Mamajonov. S., „Uslub jilolari” 79-bet

5. Aliyeva E'zoza Zokirjon qizi, "O'zbek hikoyachiligida Shukur Xolmirzayev ijodi" O'zbekistonda Fanlararo Innovatsiyalar Va Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 13-son 20.11.2022